

LABORATORIYA XIZMATI SIFATINI TA’MINLASHDA RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Nurmetova Yulduz Baltayevna

Urganch Davlat Tibbiyot Instituti “Harbiy dala terapiyasi, gematologiya va diagnostika” kafedrasida assistenti

Zamonaviy sharoitda laboratoriya-dagnostika xizmati sifatini oshirish raqamlashtirish va xalqaro hamkorliksiz mumkin emas. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari laboratoriyalar samaradorligi va raqamlashtirish darajasi o‘rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya mavjudligini tasdiqlaydi: Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,75$ ($p<0,05$). Bu esa raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritish laboratoriya faoliyatining umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

2020-2025 yillar davomida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan 125 nafar laboratoriya mutaxassisi (shu jumladan, viloyat laboratoriyalari xodimlari) uchun tashkil etilgan treninglar tashxislash ko‘nikmalari va kasbiy malakasining oshishiga xizmat qildi. FAO loyihalari doirasida bioxavfsizlik va biohimoya tizimlari mustahkamlandi. COVID-19 Emergency Response Project doirasida Xorazm viloyati laboratoriyalari modernizatsiya qilinib, shahar markazlarida tahlil natijalarini olish muddati 1-3 kunga qisqardi. Ushbu xalqaro hamkorlik natijasida laboratoriyalarda bajariladigan testlar hajmi 15-20 foizga oshdi.

Ko‘pchilik xususiy sektor vakillari davlat laboratoriya tizimidagi ayrim bo‘shliqlarni qisman to‘ldirib kelmoqda. Ular tomonidan xizmat ko‘rsatish tezkorligi va ma‘lumotlar maxfiyligi ta‘minlanmoqda. Biroq davlat va xususiy laboratoriyalar o‘rtasidagi integratsiya darajasi hozircha yetarli emas.

Tavsiya etilayotgan asosiy chora-tadbirlarga yagona raqamli monitoring platformasini hamda laboratoriya axborot boshqaruv tizimlarini (LIMS) joriy etish, mobil va chiqma diagnostika bo‘linmalarini rivojlantirish, tuman va qishloq laboratoriyalarini maqsadli moliyalashtirish, shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash va ularni sohada saqlab qolishga qaratilgan maxsus dasturlarni amalga oshirish kiradi.

Ushbu yo‘nalishlarni izchil amalga oshirish laboratoriya xizmatining samaradorligini 30-40 foizga oshirish, tashxis sifati va aholi qamrovini yaxshilash hamda 2030 yilga qadar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, sog‘liqni saqlashga bag‘ishlangan 3-maqsadga erishishga muhim hissa qo‘shishi mumkin.